

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INTEGRATSIYANING DIDAKTIK METATILI FUNKSIYALARI

Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: bek896234@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-6290-8562>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda integratsiyaning didaktik metatili sifatidagi rolini va amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini o'rganilgan. Didaktik metatil ta'lim jarayonining barcha komponentlarini - maqsadlar, mazmun, metodlar va baholash tizimini yagona strategiya asosida birlashtiruvchi yuqori darajadagi yondashuv hisoblanadi. Maqolada integrativ metatilning tizimlilik, komplekslik va moslashuvchanlik kabi asosiy xususiyatlari tahlil qilingan. Maqsadlar, mazmun va metodlar integratsiyasi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar kontekstida metatilning rivojlanish yo'nalishlari o'rganilgan. STEM ta'limi, loyiha asosidagi ta'lim va mavzular asosidagi integratsiya kabi amaliy qo'llanilish sohalari ko'rib chiqilgan. Integrativ didaktik metatil o'quvchilarning holistik dunyoqarashini shakllantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va fanlararo bog'lanishlarni tushinishda yuqori samaradorlikka ega. Bu yondashuv zamonaviy ta'lim paradigmasining asosiy qismi bo'lib, bilim jamiyatining talablariga javob beruvchi ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: didaktik metatil, ta'lim, integratsiya, maqsadlar, mazmun, metodlar, vositalar va baholash tizimi.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ МЕТАЯЗЫКОВЫЕ ФУНКЦИИ ИНТЕГРАЦИИ

Хайитов Лазизбек Рустамжон угли

Кокандский государственный университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В данной статье рассматривается роль интеграции как дидактического метаязыка в современном образовании и возможности его практического применения. Дидактический метаязык представляет собой высокоуровневый подход, объединяющий все компоненты образовательного процесса — цели, содержание, методы и систему оценки — на основе единой стратегии. В статье анализируются основные черты интегративного метаязыка, такие как системность, сложность и гибкость. Изучается интеграция целей, содержания и методов, а также направления развития метаязыка в контексте современных технологий. Рассматриваются такие области практического применения, как STEM-образование, проектное обучение и тематическая интеграция. Интегративный дидактический метаязык обладает высокой эффективностью в формировании целостного мировоззрения учащихся, развитии навыков критического мышления и понимании междисциплинарных связей. Данный подход является ключевой частью современной образовательной парадигмы и помогает создать образовательную среду, отвечающую требованиям общества знаний.

Ключевые слова: дидактический метаязык, образование, интеграция, цели, содержание, методы, инструменты, система оценки.

DIDACTIC METALANGUAGE FUNCTIONS OF INTEGRATION

Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li

Kokand State University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

Introduction. This article examines the role of integration as a didactic metalanguage in modern education and its practical application possibilities. Didactic metalanguage is a high-level approach that combines all components of the educational process - goals, content, methods and assessment system - on the basis of a single strategy. The article analyzes the main features of integrative metalanguage, such as systematicity, complexity and flexibility. The integration of goals, content and methods, as well as the

development directions of metalanguage in the context of modern technologies, is studied. Areas of practical application, such as STEM education, project-based learning and topic-based integration, are considered. Integrative didactic metalanguage is highly effective in forming a holistic worldview of students, developing critical thinking skills and understanding interdisciplinary connections. This approach is a key part of the modern educational paradigm and helps to create an educational environment that meets the requirements of the knowledge society.

Keywords: didactic metalanguage, education, integration, goals, content, methods, tools, and assessment system.

Kirish. Didaktik metatil — bu ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning umumiy strategiyasi bo'lib, turli metodlar, usullar va vositalarni birlashtiruvchi yuqori darajadagi yondashuv hisoblanadi. Integratsiyaning didaktik metatili zamonaviy ta'limda alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik metatil oddiy usul yoki metoddan farqli o'laroq, ta'lim jarayonining barcha komponentlarini — maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va baholash tizimini — yagona konsepsiya asosida birlashtiradi. Integratsiyaning didaktik metatili bu jarayonni fanlararo bog'lanishlar, bilimlarning sintezi va yaxlit (holistik) yondashuv asosida amalga oshiradi.

Integrativ didaktik metatilning asosiy xususiyatlari:

Tizimlilik — integrativ yondashuv ta'lim jarayonini yagona tizim sifatida ko'rib, barcha elementlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Bu yerda har bir komponent boshqalari bilan uzviy ravishda bog'lanib, umumiy maqsadga xizmat qiladi.

Komplekslik — turli fanlar, metodlar va vositalarni birlashtirish orqali ko'p qirrali ta'lim muhitini yaratadi. Bu o'quvchilarning turli qobiliyatlari va o'rganish uslublariga moslashish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik — o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab o'zgarishi mumkin bo'lgan dinamik tuzilmaga ega. Bu metatil turli sharoitlarda samarali qo'llanilishi mumkin.

O'quvchilar uchun bilimlarning amaliy ahamiyatini anglash, fanlararo bog'lanishlarni tushunish va yaxlit dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

O'qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish, hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirish va yangi metodlarni o'zlashtirish imkoniyatlari yaratiladi. Integrativ yondashuv o'qituvchilarni ham o'quvchi ro'ida bo'lishga undaydi.

Integrativ didaktik metatilni amalga oshirishda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Bular qatoriga o'qituvchilarning malaka darajasi, vaqt resurslari, o'quv dasturlari hamda baholash tizimining moslashuvchanligi bilan bog'liq masalalar kiradi.

Shuningdek, barcha fanlarni bir xil darajada integratsiyalash mumkin emasligi, ayrim mavzularning mustaqil o'rganilishini talab qilishi ham hisobga olinishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Integratsiyaning didaktik metatili masalasi zamonaviy pedagogika fanida ta'lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish, fanlararo aloqadorlikni ta'minlash va o'quvchilarda tizimli tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo pedagogik jarayonning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini yagona konseptual asosda birlashtirish zarurati bilan bog'liq holda shakllangan. Integrativ yondashuvning nazariy asoslari, uning didaktik imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonidagi funksiyalari qator pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Integratsiya tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berishda S.A. Samsikovning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim integrativ yondashuvni ta'lim jarayonining turli elementlari o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va ularni yagona tizimga keltirish vositasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, integratsiya nafaqat fanlar o'rtasidagi oddiy aloqa, balki bilimlarning ichki tuzilmasini anglash, ularni umumiy ilmiy asosda qayta tashkil etish jarayonidir. Muallif integrativ yondashuv orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy tafakkurini shakllantirish, pedagogik hodisalarni yaxlit holda tushunish imkoniyatlarining kengayishini ta'kidlaydi [1, 45-b.]. Samsikov tadqiqotlarida integratsiyaning mantiqiy jihatlari, uning ta'lim mazmunini tizimlashtirishdagi o'rni va pedagogik jarayonni modellashtirish imkoniyatlari asoslangan.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi ham integratsiyaning didaktik metatili shakllanishi uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Olim inson tafakkuri va nutqining rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar hamda ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatgan. Vigotskiyning ichki nutq haqidagi qarashlari pedagogik tafakkurning shakllanishida alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, tashqi muloqot jarayonida shakllangan bilim va tushunchalar asta-sekin insonning ichki fikrlash tizimiga aylanadi [2, 96-b.]. Bu yondashuv integrativ didaktik metatilning kommunikativ va kognitiv funksiyalarini tushuntirishga yordam beradi, chunki ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bilim almashinuvi yaxlit fikrlash tizimini shakllantiradi.

Integrativ yondashuvning amaliy jihatlari M. Toshtemirovaning tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Muallif bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integratsiyaning o'rnini tahlil qilib, fanlararo aloqadorlik pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Tadqiqotda turli fanlar mazmunini birlashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarda kasbiy vaziyatlarni kompleks tushunish, muammolarni hal qilish va pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari asoslangan [3, 78-b.]. Mazkur qarashlar integratsiyaning didaktik metatili nafaqat bilimlarni birlashtiruvchi vosita, balki shaxsiy-kasbiy rivojlanish omili ekanini

ko'rsatadi.

E.E. Lantsev tomonidan ta'lim jarayonida kontekstual metodlar va pedagogik treninglardan foydalanish masalalari o'rganilgan. Muallif ta'lim samaradorligini oshirishda o'quv faoliyatini real kasbiy vaziyatlar bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi. Kontekstual yondashuv integratsiyaning amaliy yo'nalishini kuchaytirib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi [5, 24-b.]. Ushbu fikrlar integrativ didaktik metatili bilan bog'liq bo'lib, bunda ta'lim jarayoni maqsad, mazmun va metodlarning o'zaro uyg'unligi asosida tashkil etiladi.

M.N. Skatkinning didaktika sohasidagi ilmiy qarashlari ham integratsiya masalasini tushunishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Olim ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllarini o'zaro bog'liq tizim sifatida qaraydi. Uning fikricha, samarali ta'lim o'quvchining mustaqil fikrlashi, bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati va ijodiy faolligini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak [6, 54-b.]. Skatkinning didaktik tamoyillari integrativ metatili bilan bog'liq bo'lib, komplekslik xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

V.A. Slastenin va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogika konsepsiyalarida ham ta'lim jarayonining yaxlitligi, o'qituvchi faoliyati va o'quvchi shaxsining rivojlanishi masalalari markaziy o'rinni egallaydi. Mualliflar pedagogik jarayonni o'zaro bog'langan komponentlardan tashkil topgan tizim sifatida ko'rib, uning samaradorligi maqsad, mazmun, metod va vositalarning uyg'unlashuviga bog'liqligini ko'rsatadilar [8, 214-b.]. Ushbu yondashuv integratsiyaning didaktik metatili sifatidagi mazmunini ochib beradi, chunki metatil aynan ta'lim tizimining barcha qismlarini umumiy metodologik asosda birlashtirish vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda integratsiya tushunchasi faqat fanlararo bog'lanish sifatida emas, balki ta'limni loyihalash, boshqarish va baholashning yuqori darajadagi strategiyasi sifatida talqin qilinmoqda. Integrativ didaktik metatil ta'lim mazmunini tartibga solish, bilimlarni tizimlashtirish, o'quv faoliyatini tashkil etish va pedagogik jarayonni boshqarish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, integratsiyaning kognitiv, akkumulyativ, kommunikativ, integrativ va regulativ funksiyalari o'zaro bog'liq holda ta'lim jarayonining metodologik asoslarini tashkil etadi.

Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, integratsiyaning didaktik metatili zamonaviy ta'limda bilimlarning oddiy yig'indisi emas, balki ularni yagona tizimga keltiruvchi, fanlararo aloqalarni ochib beruvchi va shaxsning intellektual rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish, murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim mazmunini zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda integratsiyaning didaktik metatili sifatidagi mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi funksiyalarini ochib berishda tizimli, integrativ va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida qarash, fanlararo aloqadorlikni aniqlash hamda ta'lim komponentlari (maqsad, mazmun, metod, vosita va baholash) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish tamoyillari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida pedagogika va didaktika sohasidagi ilmiy manbalar, integrativ yondashuvga oid nazariy qarashlar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'rganildi. Integratsiyaning kognitiv, akkumulyativ, kommunikativ, integrativ va regulativ funksiyalari pedagogik jarayonning mazmuniy hamda tashkiliy jihatlarini bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Shuningdek, integrativ didaktik metatilning o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirish, fanlararo bilimlarni o'zlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI

Integratsiyaning didaktik metatili ta'limning kelajagi bilan chambarchas bog'liq. Sun'iy intellekt, mashinali o'qitish va boshqa innovatsion texnologiyalar ushbu metatilni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim, adaptiv tizimlar va individual o'rganish yo'llari integrativ metatilning yangi yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Bu esa har bir o'quvchining noyob ehtiyojlariga javob beruvchi ta'lim muhitini yaratish imkonini beradi.

Integratsiyaning didaktik metatili zamonaviy ta'lim paradigmasining asosiy qismi bo'lib, bilimlar jamiyati talablariga javob beruvchi samarali ta'lim tizimini yaratish yo'llaridan biridir.

Integratsiyaning didaktik metatili yaxlit pedagogik jarayonda umumiy va qonuniy jihatlarini ajratishga imkon beradi, ta'lim mazmunini sxemalashtiradi hamda ajratilgan mavhum belgilar, joylashtirishning tuzilmasi va yo'nalishlarini aniqlaydi. Integratsiyaning didaktik metatili ilmiy tadqiqot metodlarini, jumladan, formallashtirish metodini o'quv jarayoniga joriy etish uchun obyektiv sharoitlar yaratadi. Formallashtirish metodi ilmiy qoidalarni tashqi shaklda, hodisalarning ko'p qirraliligiga e'tibor qaratmasdan ifodalashni talab etadi.

Quyida o'quv jarayonida integratsiyaning didaktik metatili funksiyalarini keltirish mumkin. Integratsiyaning didaktik metatilining yuqorida sanab o'tilgan beshta funksiyasi (kognitiv, akkumulyativ, kommunikativ, integrativ va regulativ) tadrijiy tizimda joylashtirilishi mumkin. Bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning regulativ-kognitiv xususiyatlari integratsiyaning didaktik metatili funksiyalarida namoyon bo'ladi. Mazkur tizimda markaziy o'rinni integratsiyaning didaktik metatilini o'quv jarayoniga joriy etishning maqsadli komponentini belgilovchi kognitiv funktsiya egallaydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Integratsiyaning didaktik metatili funksiyalari

№	Mazmuni
1	Integratsiyaning didaktik metatili aniqlik, oydinlik va biror-bir istisnolarning mavjud bo'lmasligini talab etadi. Boshqa tomondan, u o'qitishning yaxlit jarayonining o'z mohiyati bo'yicha ziddiyatli tavsifning vositasi hisoblanadi. Ta'lim mazmunining turli fan sohalaridagi turli-tumanligi va o'qitish jarayoni bosqichlarining turli-tumanligi shakliy belgisi tizimda to'liq


		ifodalana olmaydi. Shakliy ifodalanmagan qoldiq – talabani pedagogik fikrlashini shakllantirish jarayonining undovchi motivi va harakatlantiruvchi kuchidir. Bu idmning kognitiv funksiyasini belgilaydi
2	Akkumulyativ funksiyasi	Integratsiyada didaktik metatiling akkumulyativ funksiyasi pedagogik tajribani to'plashda ifodalanadi. O'quv jarayonini turli muddatli bosqichlarda, turli o'quv fanlarida ifodalashda uning invariantlarini aniqlash o'qitish sub'ekti darajasida "pedagogik texnologiya" tushunchasini shakllantirishga ko'maklashadi. O'quv jarayonining bosqichini modellashtirib, talaba, birinchidan, o'rganilayotgan fanni ifodalovchi tushunchalar majmui sifatida o'quv axborotini va shakllantiriladigan bilimlarni baholaydi; ikkinchidan, belgilangan bilimlar ko'rinishida tushunchalar majmuini ochib beruvchi va mustahkamlovchi shakllar, vositalar va metodlarni baholaydi. Pedagogik tajribani to'plash – integratsiyaning didaktik metatili vositalari bilan o'quv jarayonining mantiqiy strukturasini aniqlash bo'yicha pedagogik faoliyatning maqsadli komponenti. Bunda yagona integratsiyaning didaktik metatili vositalari bilan ifodalgan metodik ishlanmalarni moddiy to'plash tushuniladi. Yagona belgisi ramziylik kasbiy faoliyat jarayonida ularni qulay qiladi
3	Kommunikativ funksiyasi	Integratsiyaning didaktik metatili kommunikativ funksiyasi o'qitish va o'qishni standartlashtirishda ifodalanadi, bu yaqqol kamchiliklar bilan birga ma'lum afzalliklarga ham ega. Talaba ta'lim mazmunining o'z formal-mantiqiy modelini qurishda o'z bilimlarini o'zlashtirishni tizimda tashkil etadi, mazkur bosqich – o'qitish va o'rganish ikki modelining mavjud nomuvofiqliklarini aniqlaydi. Ikki modellar o'rtasidagi ziddiyatlar – o'qitishning harakatlantiruvchi kuchi, o'qish modelini o'qitish modeliga yaqinlashtirish – o'qitish yo'nalishi. Bunda reproduktiv ta'lim deyarli istisno etiladi. Integratsiyaning didaktik metatili ikki modellarning nomuvofiqliklari muammosini aniq va ravshan aniqlab, muammoli o'qitish uchun optimal sharoitlar yaratadi. Bunda yuzaga keladigan o'quv predmetli fanda taklif etiladigan bilimlar bosqichli modellarini ifodalash vazifasi mazkur fanning o'quv-metodik majmualarini yaratish bilan hal etiladi. Muddatli joylashtirishda taklif etiladigan bilimlar modellari to'plami – talabaga uning uchun optimal muddatlarda uning oldida turgan o'quv vazifalarini mustaqil yechishga imkon beruvchi bunday majmuaning tarkibiy qismi (ahamiyatli komponenti). Shu bilan o'qish faolligini oshirishga ko'maklashuvchi o'qitishni individuallashtirish muhim vazifasi hal etiladi. Kommunikativ funksiyaning ajralmas qismi integratsiyaning didaktik metatiling tarviyaviy vazifasi hisoblanadi. O'qitish va o'qish modellarini (o'qitishning ikki sub'ektlarini) taqqoslash orqali o'quv materialining formal-mantiqiy modellari muhokamasi o'quv o'zaro aloqalarning xususiyatini belgilaydi – o'quv bilimida teng huquqli hamkorlik. O'qitish o'quv jarayonining mazkur bosqichining muammosini muhokama etuvchi ikki teng hamkorlar dialogi sifatida quriladi
4	Integrativ funksiyasi	Integratsiyaning didaktik metatiling integrativ funksiyasi bilimlarni tizimga va o'quv bilimni tizimga shakllantiruvchi (integ-ratsiyaning gorizontaal va vertikal tashkil etuvchilari) belgisi vositalarning umumiylikida ifodalanadi. Gorizontaal va vertikal aloqalar, munosabatlarni aniqlash o'qitish predmeti va jarayonining mohiyatini tushunishning zaruriy chuqurligini ta'minlaydi, ikki o'zaro bog'liq tizimlardan har birining tuzilmasi, vazifalari va rivojlanish yo'llarini ochib beradi. O'quv bilimning integrativ mohiyati "tashkil etish" toifasiga ifodalanadi. Integratsiyaning didaktik metatili – tashkil etish, qismlarni yaxlitga birlashtirish vositasi
5	Regulyativ funksiyasi	O'quv jarayonida integratsiyaning didaktik metatili regulyativ funksiyasi doirasida ta'lim mazmuni va shakli me'yori tizimini belgilaydi. O'quv jarayoniga integratsiyaning didaktik metatili joriy etish bilan «Maxsus pedagogika» ta'lim yo'nalishida yaxlit pedagogik jarayonda tilni o'zlashtirish konstruktiv texnologiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Integratsiyaning didaktik metatili o'zlashtirish to'rt darajada sodir bo'ladi: "tanishish", "nusxalar", "ko'nikmalar", "o'zgarishlar". Texnologiya o'quv o'zaro aloqalarga talablar majmuida ifodalgan o'qitish sub'ektlari xulqlari qoidalarini belgilaydi. Texnologiya o'quv rejani shakllantirish omillaridan biri hisoblanib, o'quv rejasi fanlarini muddatli joylashtirish konsepsiyasini hosil qiladi. O'quv rejasi integratsiyaning didaktik metatili o'zlashtirishning bir turdagi didaktik vazifalarining majmui sifatida qaraladi

Ajratilgan funksiyalar integratsiyaning didaktik metatiling asosiy va yagona metodologik funksiyasining turli ko'rinishlari bo'lib, u integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga, talabalarining fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, o'quv jarayonini obyektiv tushunishga hamda hodisa va munosabatlarni to'g'ri baholashga yo'naltiriladi.

Muhokama. Ta'lim jarayonining o'zi integratsiyaning didaktik metatili vositalari yordamida hissiy idrok va fikrlashning o'zaro aloqadorligi orqali amalga oshadi. Integratsiyaning didaktik metatili o'qitishda ko'rgazmalilik vazifasini bajaradi. Integratsiyaning funksiyalari nazariya va amaliyotning, mavhum fikrlash va uni shakllantirishning aniq usullarining bog'liqligini, o'quv jarayoni mazmuni va shakllarining o'zaro aloqadorligini, maqsadlar va vositalarning

uyg'unligini belgilaydi hamda muayyan miqdordagi bilimlar to'plami asosida bilishning sifat jihatidan yangi darajasini shakllantiradi. Integratsiyaning didaktik metatili integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. O'quv jarayoni mazmuni va uning mazmuniy aloqalarini anglash integratsiyaning didaktik metatili orqali amalga oshadi. Integratsiyaning didaktik metatili ichki pedagogik nutq darajasida o'qitish jarayonini tushunish uchun sharoit yaratadi. Tashqi pedagogik nutq shaxsiy didaktik tizimni modellashtirishga, ichki nutq esa pedagogik fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi [1].

L.S. Vigotskiyning fikriga ko'ra, ichki nutq insonning nutqiy muloqoti asosida yuzaga keladi va rivojlanadi. Bunday muloqot ta'lim mazmuni hamda o'qitish jarayonining mantiqiy tuzilishini tahlil qilishga o'rgatadi. Ichki nutq pedagogik ong uchun eng muhim bo'lgan jihatlarni umumlashtiradi va shakllantiradi [2] (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabaning tashqi pedagogik nutqini shakllantirish modeli

Integratsiya didaktik metatili tuzilmaviy elementlar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni ochib beradi. Aloqalarni aniqlash uchun tuzilmaviy elementlar doirasini aniq belgilash zarur.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integratsiyaning metatili bilan tanishishning ta'limiy-didaktik vazifalari tizimi "Surdopedagogika" kursida mujassamlangan tanlangan didaktik materialga mos ravishda tashkil etilishi kerak.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarda integrativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, fanlararo integratsiyani amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- o'qitiladigan barcha fanlar darsliklaridagi materiallarni atroflicha o'rganib chiqish, ulardagi bog'lanish obyektlarini aniqlab olish;
- fan darsliklaridagi mazkur materiallarning o'zaro bog'lanish nuqtalarini aniqlab olish;
- dars jarayonida fanlararo bog'lanish nuqtalarining yechimiga olib keluvchi shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratish;
- fanlararo integratsiyani amalga oshirishning faol yo'l, usul va vositalarini oldindan tanlash, ishlab chiqish hamda ulardan dars jarayonida mohirona foydalanish;
- fanlararo integratsiyani amalga oshirishda yetarli adabiyotlarni to'plash va ulardan dars jarayonida ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish;
- turli fanlarda bir xil obyektlarni o'rganishga qaratilgan turdosh mavzularni aniqlab olish;
- bir fan usullaridan boshqa fan obyektlarini o'rganishda foydalana olish;
- turli fanlarda ayrim obyektlarni o'rganishda bir xil nazariyadan foydalanish nuqtalarini belgilash va uni amalga oshirish;
- integrativ yondashuvni aks ettiruvchi dars jarayonlarini tashkil etish, shu o'rinda integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarda adabiy nutq madaniyatini shakllantirish.

Demak, tahlillar asosida ta'limdagi integratsiyani quyidagicha ifodalash mumkin: butun borliq haqida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida qaraladi); turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bunda integratsiya vosita sifatida qo'llaniladi); rivojlantiruvchi ta'lim berish vositasi sifatida; umuminsoniy va milliy tarbiya vositasi sifatida.

Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va u o'z rivojini integratsiya g'oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo'lgan predmetlarni o'rganish bo'lajak mutaxassislarning bilimlari, ish uslublari va shaxsiy fazilatlarining yaxlitligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi.

Ikki o'quv fani o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda va ularning integratsiyasida vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo'lib xizmat qiladi. Turli o'quv fanlaridagi mavzularning uzviy bog'liqligi va mantiqiy o'zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo'lishi kerak.

Ta'lim integratsiyasi – fanlararo aloqaning yuqori darajasi bo'lib, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vositadir. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha. Ushbu ta'riflarning umumiy jihati shundaki, integratsiya atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Integratsiyaning didaktik metatili zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. U ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimini yagona tizim asosida uyg'unlashtirish

imkonini beradi. Integrativ yondashuv orqali alohida fanlarga tegishli bilimlar o'zaro bog'lanib, o'quvchilarda borliqni yaxlit tushunish, fanlararo munosabatlarni anglash va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan tafakkurni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Integratsiyaning didaktik metatili kognitiv, akkumulyativ, kommunikativ, integrativ va regulativ funksiyalar orqali ta'lim jarayonining turli jihatlarini boshqaradi. Ushbu funksiyalar bilimlarni tizimlashtirish, pedagogik tajribani umumlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda ta'lim mazmunini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada o'quv jarayoni oddiy axborot berish jarayonidan ko'ra shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi murakkab pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Integrativ didaktik metatilning asosiy afzalligi shundaki, u turli bilim sohalarini yagona konseptual asosda birlashtirib, o'quvchilarda tizimli va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash hamda pedagogik vaziyatlarni kompleks hal etish imkonini beradi. Shuningdek, integratsiya ta'lim mazmunining moslashuvchanligini oshiradi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun sharoit yaratadi. Fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu jihatdan, integratsiyaning didaktik metatili zamonaviy ta'lim paradigmasining ajralmas qismi bo'lib, bilimlar jamiyati talablariga mos, yaxlit fikrlaydigan va kasbiy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Самсиков С. А. Интегративный подход к подготовке учителей начальных классов (логический аспект) : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01. – Рязань, 2000. – 212 с.
2. Выготский Л. С. *Собрание сочинений*: в 6 т. – Москва : Педагогика, 1982.
3. Toshtemirova M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga kompetentligini rivojlantirish : pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2022. – 131 b.
4. Самсиков С. А. Интегративный подход к подготовке учителей начальных классов (логический аспект) : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01. – Рязань, 2000. – 212 с.
5. Ланцев Е. Е. Контекстуальные методы и логопедические тренинги. – Москва, 2002. – 24 с.
6. Скаткин М. Н. *Дидактика средней школы*. – Москва : Педагогика, 1980. – 96 с.
7. Скаткин М. Н. *Проблемы современной дидактики*. – Москва : Педагогика, 1980. – 96 с.
8. Слостенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. *Педагогика* : учеб. пособие для студентов высших педагогических учебных заведений / под ред. В. А. Слостенина. – Москва : Издательский центр «Академия», 2002. – 576 с.